

**KIMYO FANINI FAN VA ISHLAB CHIQUARISH HAMKORLIGI ASOSIDA
O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI****Ahadov Ma'murjon Sharipovich***Navoiy viloyati Navoiy shahar Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar
fakulteti Kimyo kafedrası o'qituvchisi p.f.d D(Sc)***Mardonova Zuxra Shuxrat qizi***Navoiy viloyati Navoiy shahar Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar
fakulteti Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (Kimyo) yo'nalishi 1 bosqich
magistranti*

Annotatsiya. Maqolada Finlandiya ta'lim tizimi va kimyo fanini o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan. Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston ta'lim tizimi bilan o'xshash jihatlari, afzallik va kamchiliklari ko'rsatilgan. Finlandiya ta'lim tizimi va kimyo fanini o'qitishning afzallik tomonlarini o'rganish ularni metodologik jihatdan takomillashtirish hamda O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich maktab, o'rta maktab, litsey, gimnaziya, oliy ta'lim.

KIRISH

O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirish uchun Buyuk Britaniya, Fillandiya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va shu kabi boshqa davlatlarning o'qitish tizimini o'rganish va afzallik tomonlarini tadbiq etish kerak bo'ladi. Oxirgi yillarda O'zbekistonning jadal rivojlanishi xorijiy davlatlar bilan olib borayotgan iqtisodiy va siyosiy hamkorligining natijasidir.

Ayni damda O'zbekiston uchun turli sohalarida o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil takomillashtirishga, kerak bo'lsa yangi bilimlar va kasblarni o'zlashtirishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muhimdir. Shu bilan birga, kimyo fanini yaxlit tizim sifatida o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish uslublarining ilg'or mexanizmlarini ishlab chiqish uchun xorijiy davlatlar bilan hamkorlik zarurati yuzaga keldi.

Qilingan adabiyotlar tahlili chet el pedagogik tajribasini, ta'lim va tarbiya nazariyalarini qiyosiy o'rganish o'z mamlakatimizdagi ta'lim tizimlarini takomillashtirish va yanada samarali ta'lim tizimlarini yaratish uchun andoza bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda kimyo fanini o'qitish sifatini yaxshilash, ta'lim jarayoniga ishlab chiqarish texnologiyalarni o'rganish, mavzularga bog'lash, o'quvchilarni kimyo sanoatiga qiziqtirish va yangi texnologiyalarni tatbiq etish, integrasiyalash, aralash ta'lim texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, o'quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodik ta'minotni

yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Finlandiya na'lim tizimini chuqur o'rganish va o'zaro hamkorlik qilish yaqqol misol bo'la oladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Finlandiyadagi ta'lim tizimi - Finlyandiyada maktab ta'limi dunyodagi eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan har 3 yilda bir marta o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Finlyandiya maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilim darajasini ko'rsatdilar: ular eng ko'p kitob o'qiydigan bolalar deb tan olindi, tabiiy fanlar bo'yicha 2-o'rin va matematikadan 5-o'rinni egalladi. Finlyandiyada maktab ta'limida asosiy shior: hamma narsada tenglik. Peshqadam va zaif maktablar mavjud emas. Shuning uchun ota onalar bolalarni uyiga yaqin maktablarga berishadi.

Mamlakatdagi eng yirik maktabda 960 nafar, eng kichigida 11 nafar o'quvchi bor. Hammasi aynan bir xil uskunalar, imkoniyatlar va mutanosib moliyalashtirishga ega. Finlar uchun inson hayotida barcha fanlar bir xil darajada muhim rol o'ynaydi. Maqsad – yoshlarni bir fanni o'qishga majburlashdan ko'ra, ularga keng ta'lim berish va hayotga tayyorlash.

Maktab ta'limi. Finlyandiyada deyarli barcha maktablar davlat tasarufida bo'lib, xususiy maktablar kam. Maktab ta'limi ikki bosqichdan iborat: quyi (alakoulu) 1- 6-sinfgacha va yuqori (yläkoulu) 7- 9-sinfgacha. Qo'shimcha 10-sinfda o'quvchilar keying bosqichga tayyorgarlik ko'rish va o'z baholarini oshirishlari mumkin. Keyin o'quvchilar kasb-hunar kollejiga boradilar yoki litseyda (lukio) o'qishni davom ettiradilar 11-12-sinflar.

Finlar o'quvchilarni sinfi, qobiliyati yoki martaba afzalligi bo'yicha toifalarga ajratmaydi.

Shuningdek, "yomon" va "yaxshi" o'quvchilar yo'q. O'quvchilarni bir-biri bilan solishtirish taqiqlanadi. Sog'lig'da nuqsoni bor bolalar ham hamma bilan birga o'qiydilar. Oddiy maktabda ko'rish yoki eshitish qobiliyati zaif o'quvchilar uchun sinf yaratilishi mumkin. Finlar alohida muomalaga muhtoj bo'lganlarni iloji boricha jamiyatga integratsiya qilishga harakat qilishadi.

Finlyandiya mehnat qonunchiligida qabul qilingan o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlari tufayli o'qituvchilar o'quvchilarni kamsitishi mumkin emas.

Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Bir sinfdagi dars davomida bolalar turli qiyinchilik darajasidagi mashqlarni bajaradilar.

Finlyandiya maktablarida imtihonlar o'tkazilmaydi. Nazorat va oraliq testlar o'qituvchining ixtiyorida. Umumta'lim maktabining oxirida faqat bitta majburiy standart sinov o'tkaziladi. Finlandiyada o'quvchilar shartnoma va bank kartasi nima ekanligini, olingan meros yoki kelajakda olinadigan daromadlar bo'yicha soliq foizini hisoblashni, internetda tashrif qog'ozi, veb-saytini yaratishni biladilar.

O'qituvchilar o'quvchining e'tiborini jalb qilishga harakat qilishadi, lekin agar u o'qishga qiziqishi yoki qobiliyati to'liq bo'lmasa, bola kelajakda amaliy foydali bo'lgan

"oddiy" kasbga yo'naltiriladi va "2" baho bilan jazolanmaydi. Ular hamma ham samolyot yasashi shart emas, kimdir avtobus haydashni yaxshi bilishi kerak deb hisoblaydilar. Finlar buni ham o'rta maktabning vazifasi deb bilishadi – berilgan o'smir litseyda o'qishni davom ettirishi kerakmi yoki minimal bilim darajasi yetarlimi, kasb-hunar maktabiga borish kinga naf keltirishini aniqlashadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda o'qituvchiga, yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyozlar berilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim oldida talaba yoshlar jamoasiga bilimli, ma'naviyatli hamda o'zbek millatiga xos tafakkurga ega bo'lgan yoshlar qabul qilish, ularni bilim bilan qurollantirish va yuqori ma'noda buyuk inson darajasiga yetkazish kerakdir. Buni bajarishda fan o'qituvchilarining xizmati munosib o'rindadir.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations). Finlandiya ta'lim tizimining yutug' tomonlari ko'p, masalan: o'quvchilarning darsda erkinligi, fanlarni tanlay olishi, sifatni mustahkamlashga alohida e'tibor berilishi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin munosabat o'rnatilganligi; o'quvchilar o'rtasida farq bo'lmasligi uchun baholashning o'zgacha usuli borligi; ijodiy muhit yaratilganligi; javob bera olmagan o'quvchilarni ham o'qituvchi xushmuomalalik bilan to'g'ri yo'naltira olishi; ta'lim maqsadli individuallashtirilganligidir.

O'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilib quyidagilarni O'zbekiston ta'lim tizimi maktablarda kimyo fanini o'qitishda quyidagilarni joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- 1.o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish;
- 2.o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish;
- 3.darslik va adabiyotlar sifatini oshirish;
- 4.kimyo fani yo'nalishida zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish;
5. xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalarni joriy etish;

REFERENCES

1. N. Borisov. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent. 1966 y.
2. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.
3. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.
4. Ptiyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologii", M., 1999.
5. Brenda Iasevoli, "Teachers Turn Craze Over Fidget Spinners Into Academic Lessons" Education Week.,May 24, 2017
6. X.Ibragimov,Sh.Abdullaeva.Pedagogika nazariyasi.Darslik.-T.:Fan va texnologiya,2008.-288b.
7. Xo'jayev N.X., Xodiev B. Yu., Baubekova G.D., Ti'abova N. T. Yangi pedagogik texnologiyalar. Obquv qo'llanma. — Toshkent: Fan, 2002
8. Hasanboyev Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. —Toshkent: Fan, 2006.
9. Nishonov M.,Mamajonov Sh.,Xo'jayev V.Kimyo o'qitish metodikasi.T., "O'qituvchi", 2002

6. Narzulaeva, U. R., & Bekkulova, M. A. (2023). Arterial gipertenziya etiologiyasida dislipidemiyaning xavf omili sifatidagi roli. Science and Education, 4(2), 415-419.
7. Abdurasulovna, B. M. (2022). Clinical Features of Rheumatoid Arthritis in Patients at the Age of Older 60 Years Old. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 650-655.
8. Farkhodovna, K. F., Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 377-381.
9. Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). GEMOREOLOGIK BUZILISHLAR VA ERITROTSITLAR AGREGATSION XOSSALARI O'ZGARISHINING PATOGENETIK MEXANIZMLARI. JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE, 7(6).
10. Abdurasulovna, B. M. (2023). The Significance of Microelements Deficiency in Cardiological Practice. Eurasian Medical Research Periodical, 19, 23-27.
11. Беккулова, М., & Тоиров, Э. (2018). Ревматоидный артрит у лиц старше 60 лет. Журнал вестник врача, 1(1), 24-29.
12. Bekkulova, M., & Yusufjonov, M. (2024). ANTIGIPERTENZIV DORI VOSITALARINING QO 'LLANISH SAMARADORLIGINI ANIQLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 4(1), 199-205.